

MONETAR SIYOSAT VA MARKAZIY BANK

Olloqulova Feruza Mansurovna i.f.f.d.(PhD)Termiz davlat Universiteti
Boborahmatova Shohsanam Ibodullo qizi Termiz davlat Universiteti,

Iqtisodiyot ta'lim yonalishi, 1-bosqich magistranti Tel.99-096-91-33
[*shohsanamboboraxmatova@gmail.com*](mailto:shohsanamboboraxmatova@gmail.com)

Annotatsiya.

Bu maqolada monetar siyosat, pul-kredit operatsiyalari, markaziy bank tuzilishi haqida ma'lumotlar berilgan. Markaziy bank faoliyatining asosiy maqsadi bo'lgan iqtisodiyotda narxlar barqarorligini ta'minlashda transmission mexanizm foiz kanali ta'sirchanligini oshirish maqsadida pul-kredit operatsiyalari amalga oshiriladi. Pul-kredit operatsiyalari bank tizimi umumiy likvidligini tartibga solish orqali qisqa muddatli foiz stavkalarini boshqarishga yo'naltirilgan. Markaziy bank tomonidan ushbu operatsiyalar foiz koridori mexanizmi asosida amalga oshiriladi.

Abstract.

This article provides information on monetary policy, monetary and credit operations, and the structure of the central bank. Monetary and credit operations are carried out in order to increase the effectiveness of the transmission mechanism interest channel in ensuring price stability in the economy, which is the main goal of the central bank's activity. Monetary and credit operations are aimed at managing short-term interest rates by regulating the general liquidity of the banking system. These operations are carried out by the Central Bank on the basis of the interest corridor mechanism.

Kalit so'zlar: Kredit. Markaziy bank tizimi. Iqtisodiyot. Foiz stavkalar. Transmission mexanizm. Foiz koridori mexanizmi.

Keywords: Credit. Central banking system. Economy. Interest rates. Transmission mechanism. Interest corridor mechanism

Pul-kredit siyosatining maqsadi inflyatsiyaning 5 foizlik target darajasini ta'minlashdir. Ushbu maqsadga erishish uchun Markaziy bank asosiy stavkani o'zgartirish

orqali iqtisodiyotdagi yalpi talabni taklif darajasigacha muvozanatlashtirish choralari ko'rib boradi. Iqtisodiyotdagi foiz stavkalari darajasi bozor ishtirokchilarining qarz olish, sarmoya kiritish, jamg'arish yoki iste'mol qilish bo'yicha qarorlariga ta'sir ko'rsatadi. Markaziy bank asosiy stavkasining oshirilishi iqtisodiyotdagi foiz stavkalarini oshiradi. Yuqori foiz stavkalari jamg'arish vositalarining jozibadorligini oshiradi hamda qarz vositalariga talabni kamaytiradi. Bunday sharoitda bozor ishtirokchilari ko'proq jamg'arib, kamroq sarflashda davom etadi. Tovar va xizmatlar taklifi o'zgarmagan holda ularga bo'lgan talabning pasayishi iqtisodiyotdagi narxlarning barqarorlashuviga va natijada inflyatsiya darajasining pasayishiga xizmat qiladi. Aksincha, inflyatsiya prognoz davrida targetidan pasayib ketishi ehtimoli yuqori bo'lgan taqdirda asosiy stavka pasaytiriladi.

Markaziy bankning operatsion mexanizmi

Maqsadi	Instrument	Shartlari	Foiz stavkasi	Vazifasi
Likvidlikni taqdim etish	REPO auksionlari	7 kunlik (har dushanba) (11:00 - 11:30)	Asosiy stavka	Bank tizimi likvidligidagi vaqtinchalik taqchillikni qoplash
	SVOP auksionlari	7 kunlik (har dushanba) (11:30 - 12:00)		
	Overnayt REPO operatsiyalari	1 kunlik (10:00 - 16:00)	Asosiy stavka	Bank tizimi likvidligidagi kunlik taqchillikni qoplash
	Overnayt SVOP operatsiyalari		+ 2%	

"YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 2, Issue 11, Noyabr 2024

Likvidlikni jalb etish	Overnayt depozit operatsiyalari	1 kunlik (10:00 - 16:00)	Asosiy stavka - 2%	Bank tizimi likvidligidagi kunlik ortiqchalikni jalb etish
	Depozit auksionlari	7 kunlik (har payshanba) (11:00 - 11:30)	Asosiy stavka	Bank tizimi likvidligidagi vaqtinchalik ortiqchalikni jalb etish
	Markaziy bank obligatsiyalari	12 oygacha (grafikka asosan) (11:00 - 11:30)	Asosiy stavka + 2% (yuqori chegara)	Bank tizimi likvidligidagi tarkibiy ortiqchalikni jalb etish

Pul agregatlari pul massasini o'lchovchilardan (ko'rsatkichlaridan) iborat. Pul agregatlari statistikada pullar harakatining muayyan sanaga bo'lgan yoki muayyan vaqt davridagi o'zgarishini tahlil etish uchun qo'llaniladi. Pul agregatlarini qurish uchun moddiy ne'matlarning likvidligi darajasiga qarab ularning bosqichma-bosqich joylashtirilishi asos qilib olingan. Moddiy ne'matlarning likvidligi deganda ushbu ne'matlarning tez va unchalik ko'p zararlarsiz pulga aylanish qobiliyati tushuniladi. Moddiy ne'matlarning likvidligi vaqt bilan o'lchanadi. Moddiy ne'matni pulga aylantirish uchun qanchalik kam vaqt talab qilinsa, uning likvidligi shunchalik yuqori bo'ladi. Naqd pullar mutloq likvidlikka ega, chunki ularni pulga aylantirish uchun zarur bo'ladigan vaqt nolga tengdir. Bank multiplikatori mexanizmi quyidagi usulda faoliyat yuritadi: Markaziy bank qandaydir tijorat bankiga kredit beradi va o'z navbatida ushbu tijorat banki o'zining mijoziga kredit beradi. Mijoz ushbu taxminan IOTA birlikdan iborat kreditdan o'z majburiyatlarini to'lash uchun foydalanadi.

Pul mablag'lari boshqa iqtisodiy subyektga borib tushadi va u bu mablag'larni o'zining tijorat bankidagi depozitli hisobvarag'ida joylashtiradi. Bankning ikkinchi mijozining

hisobvaraḡ'ida 10 ta birlik mavjud. Bank ushbu summadan majburiy zaxiralash fondiga muayyan foizni ajratadi. Bankda, masalan, erkin mablag'- laming 8 ta birligi qoladi va u ushbu mablag'larni yana kreditga beradi. Bu operatsiya faqat shunday farq bilan takrorlanadiki, to'rtinchi mijozning hisobvaraḡ'ida endi 8 ta birlik mavjud bo'ladi. Bunday operatsiya muayyan muddat davomida takrorlanadi va natijada mijozlaming banklardagi hisobvaraḡlarida Markaziy bank birinchi marta 10 ta birlikdan oshadigan summa (10+8+ va hokazo) paydo bo'ladi. Shunday qilib, mazkur mexanizm iqtisodiyotga taqdim etilgan pul massasini muayyan summagacha naqd pulsiz shaklda ko'paytirishga imkon beradi, ushbu holatda belgiJab qo'yilgan majburiy zaxiralash me'yori qanchalik yuqori bo'lsa, kreditning aylanishi shunchalik tez tugaydi va bu mexanizmning amal qilishi natijasida qo'shimcha ravishda iqtisodiyotda shunchalik kam miqdordagi pullar paydo bo' ladi. Pul muomalasining tezligi pul aylanishining muhim tavsifnomasi hisoblanadi. Bu shu bilan bog'liqki, muayyan vaqt davomida (masalan, yil davomida) har bir pul birligi aylanishining soni qanchalik ko'p bo'lsa, iqtisodiyotning normal faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan pul mablag'larining miqdori shunchalik kam bo'ladi. Arnalda pul massasi muomalasining tezligi daromad muomalasining tezligini ko'rsatadi. Xo'jalik yuritish amaliyotida tovar munosabatlari umumiy tus olgan sharoitda tijorat va bank krediti qo'llanilishining kengayishi shunga olib keldiki, o'z funksiyalari, muomala sohasi (chegaralari), kafolatlari va shu kabilarga ko'ra od~iy pullardan farq qiladigan va mutlaqo boshqacha qoidalar bilan boshqariladigan kredit pullar umumiy tovar bo'lib qoladi. Kredit pullar ijtimoiy-iqtisodiy jarayonning birmuncha rivojlangan, oliy sohasiga xosdir.

Ular kapital ishlab chiqarishni to'liq egallagan va unga oldingisidan boshqacha, o'zgartirilgan va o'ziga xos shaklni berganida vujudga keladi. Kredit pullarning o'zlgaga xos xususiyati shun dan iboratki, ularning muomalaga chiqarilishi muomalaning haqiqiy ehtiyojlari bilan bog'liq bo'ladi. Bu shuni anglatadiki, kredit operatsiyalari ishlab chiqarishning real jarayonlari va mahsulotlarning sotilishi munosabati bilan bajariladi. Ssuda, odatda, zaxiralarning muayyan turlari ta'minot bo'lib xizmat qiladigan ta'minot asosida beriladi. Bu qarzdorlarga beriladigan to'lov vositalarining hajmini muomalaning puUarga bo'lgan haqiqiy ehtiyoji bilan bog'lashga imkon beradi. Ayni shu xususiyat kredit pullarining eng muhim afzalligidir. Kredit pullar (banknotalar) bilan qog'oz pul belgilari o'rtasidagi eng

muhim tafovut ularning muomalaga chiqarilishidagi o'ziga xos xususiyatlaridadir. Agar banknotalar ishlab chiqarishning real jarayonlari va mahsulotlarning sotilishi munosabati bilan bajariladigan kredit operatsiyalari munosabati bilan muomalaga chiqariladigan bo'lsa, qog'oz pullar muomalaga bunday bog'lanishsiz chiqariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xodiyev B.Yu., Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. -T.: Barkamol fayz-media, 2017, 783 bet.
2. Ulmasov A., Vaxabov A. V. Iqtisodiyot nazariyasi. -T.: Iqtisod-moliya, 2014,480 b.
3. Shodmonov Sh.Sh., Yeofurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. -T.: Iqtisod-moliya, 2010,728 b.
4. Razzoqov A., Toshmatov Sh., Urmonov N. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Darslik. -T.: Iqtisod-moliya, 2007, 320 b.
5. Razzoqov A., Toshmatov Sh., O'rmonov N. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. -T.: Moliya, 2002, 42-89-90-147-149 b. 507 b.
6. Shodmonov Sh. Bozor iqtisodiyotiga o'tishda pulning yangi mazmuni va roli. // Bozor, pul va kredit, 2001, 9 b.
7. Макконнел К.Р., Брю СЛ. Экономикс: принципы, проблемы и политика: Учебник. 17-е изд. -М .: ИНФРА-М, 2009, 916 с.
8. Me Connell, Brue. Economics. 19 th edition, Megraw-hill. Irwin, USA. 2014 41. Самуэлсон- Пол Э., Нордхаус Вильям Д. Экономикс. Учебник. 18-е изд. пер. с англ. -М .: ООО И.Д.Вильямс, 2009, 1360 с.